

## MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA NAVOIY ANTROPINIMINING TARIXIY ALLUZIYA SIFATIDA QO'LLANILISHI

Karimova Mastura Ablaxat qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti

"O'zbek tilshunosligi" kafedrasasi o'qituvchisi

E-mail: [karimovam94@mail.ru](mailto:karimovam94@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Maqolada Muhammad Yusuf hse'rlarida Alisher Navoiy antroponimining tarixiy alluziv nom sifatida qo'llanilishi haqida fikrlar bildirilgan. Matn umumiy g'oyasini retsipientga yetkazishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** alluziya, ishora, retsipient, muallif, badiiy matn, tarixiy alluziya, Alisher Navoiy.

Badiiy matn tahlilida alluziya o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Alluziv nomlarning keltirilishi bilan muallif butun bir tarixiya shaxs hayotini, voqealarni, millat ruhyatini ham jumla orqali retsipientga qisqa va lo'nda yetkaza oladi.

Alluziya atamasining kelib chiqishi XVI as o'rtalariga to'g'ri keladi. G. Blum "biror narsani aniq eslatmasdan, esga solish uchun mo'ljallangan ibora" deya ta'kidlab, alluziyani "ishora" so'zi bilan sinonim sifatida qo'llagan. XXasrga kelib alluziya termini bilan bog'liq turli qarashlar paydo bo'lib, qizg'in ilmiy tortishuvlarga sabab bo'ldi. Rus tilshunos olimlaridan E. Y. Abramova, O. S. Axmanova, I.V. Gubbenet, E.M. Dronova, A.S. Evseeva, M. L. Kiose, A.G. Mamaeva, L.A. Mashkova, LG. Potylitsyna, E.V. Rosen, I.N. Sofronova, Z.Porat va boshqa tilshunos olimlar bu borada o'z fikrlarini bildirganlar. Alluziya atamasi haqida bir to'xtamga kelinganisan so'ng, olimlar tomonidan alluziya turlarini belgilashga oida izlanishlar boshlandi. Jahon tilshunosligida Novoxacheva, D. Tuxarelli, L. Kramer kabi olimlarning alluziya turlariga oid bir qator fikrlarni tahlilga tortadilar. Alluziv nomlarning turlarini belgilashda, birinchi navbatda, tahlil qilinayotgan badiiy matn tegishli bo'lgan millat ruhiyati, urf-odatlari, kelib chiqishi inobatga olinishi zarur. Zero, badiiy matn bevosita xalq dunyoqarashi ifodasi hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida M. Xomidova alluziya hodisasiga to'xtalar ekan, uni 5ta turga ajratadi: diniy, tarixiy, badiiy, mifologik, ijtimoiy-maishiy. Muhammad Yusuf she'rlarini tahlil qilish barobarida bir qator alluziv birliklarni uchratamiz. Ular orasida tarixiy va badiiy alluziv birliklar katta hajmni egallaydi.

M. Yusufning “Vatanim”, “Armonlaring bor”, “Tavallo”, “Ajab dunyo”, “Aytinglar”, “Xirmondagi bola”, “Botir Zokirovni o’ylayveraman”, “Adabiyot muzeyida”, “Kumush”, “Bobur”, “Kinoga kirmayman”, “Toshkent”, “Taraqqiyot” kabi she’rlarida tarixiy va badiiy alluziv birliklar qo’llanilgan. Matnda Navoiy, Bobur, Ulug‘bek, Temur Malik, Muqanna, Shiroq, Jaloliddin, Mashrab, Jahon Otin, Qodiriy, Cho’lpon, Usmon Nosir, Fayzulo Xo’jayev Oybek, Mirtemir, G‘. G’ulom kabi tarixiy alluziyalar qo’llanilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy antroponimi qo’llanilgan o’rinlar talaygina. Har bir she’rda Alisher Navoiyning turli qirralari namoyon etiladi. Albatta, bu she’rdagi g’oyaga asoslanadi. Xususan, “Ajab dunyo” she’rida Alisher Navoiy va Bobur Mirzoning buyuk ijodkor ekanligi, ularning tarix sahnasida o’chmas iz qoldirganliklari birinchi planga chiqadi.

Ikki buyuk shoir, ikki musofir-

Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur.

O’zbek xalqining bobolar ruhiga duo qilish bilan birgalikda ularning qabrlarini ham ziyorat qilish avlodlar oldidagi burch hisoblanadi. Matnda ikki buyuk tarixiy shaxsning musofirlikdagi hayoti barobarida Vatandan yiroqlarga ko‘milganliklariga afsus qilish ruhiyati mavjud. “Xirmondagi bola” she’rida esa

Navoiy satriga termilib yurib,

Tuydim jamolini bu ko‘hna elim...

Bu o‘rinda Alisher Navoiyning g‘azalnavislik semasi birinchi planga chiqariladi. Muallif Navoiyning go‘zal, purma’no ijodini Vatani tarixi bilan bog‘laydi. “Vatanim”she’rida Alisher Navoiyning xalqi uchun qilgan yana bir muhim xizmati tilga olinadi.

Navoiysan, shoh yonida

Faqirni duo qiAlgan.

Navoiy temuriylar saroyiga yaqin bo‘lib, do‘sti va podshoh Husayn Boyqaroga ta’sir ko‘rsata olgan. Shu sababli, o‘z asarlarida Husayn Boyqaroga qaratilgan g‘oyalarni ifodalab o‘tgan: dunyoning va shoh taxtining o‘zgaruvchanligi, hukmdorning o‘z xalqi oldidagi majburiyatları kabi. Butun umri davomida yaratgan asarlarini siyosat bilan birlashtirgan shoir yuqori mansabga ega shaxs bo‘la turib, mamlakat hayotining ijtimoiy- iqtisodiy takomillashtirishga katta hissa qo‘sghan; ilm-fan, san’at rivojiga homiylik qilgan. Alisher Navoiy nomini eshitganda retsipient ongida g‘azallari, “Xamsa” asari kabilar gavdalanim, matnda uning aynan xalq hayotini yaxshilash, turmushini farovonlashtirish yo‘lidagi sa’y harakatlari asosiy planga chiqarilgan.

Shoirlar dunyoga tanitib elin,

Mukofotlar bilan bir-birin qutlaydi.

Navoiy bobosin tushunmay tilin,

Kelajak avlodlar bizni unutmaydi!

“Taraqqiyot” she’ridan olingan parchada Alisher Navoiynining jahonga mashhur siymo ekanligi asosiy o‘ringa chiqadi. Bunda matnning umumiy mazmuniga asoslanadigan bo‘lsak, ayrim bilimsiz yoshlarga nisbatan tanqidiy fikr ham anglashiladi. Bobomizning butun umrini ilm-ma’rifatga bag‘ishlanganligi, ammo, yoshlar bu bilimdan yetarlicha foydalanmayotganligi ‘Navoiy bobosin tushunmay tilin” gapi orqali bilib olishimiz mumkin. Muallif retsipientga yetkazmoqchi bo‘lgan fikrlarning barchasi Alisher Navoiy antroponomini keltirish barobarida yanada izchil, dalillangan bo‘lib yetib boradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. M. Qurbanova, M. Yo‘ldoshev. Matn tilshunosligi. O‘quv qo‘llanma. - T: Universitet, 2010
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Fil. fan. doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya T..2010.
3. Xudoyberganova D. Badiiy matnning antropotsentrik tadqiqi. Fil. fan. doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - T., 2010.
4. Turniyozov N. Matn lingvistikasi. SamDChTl nashri,2004.
5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. O‘quv qo‘llanma. - T., 2008.
6. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. - T.: Fan, 2007.
7. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. - T.: Fan, 2008.
8. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. - 8., 2000.
9. Homidova M. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. -T.,2021
10. M. Yusuf.She’rlar. Elektron kitob.